



SOCIAL AND POLITICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENON “SECURITY”

Jakhongir Boybutayev

PhD, Associate Professor

Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Danger, threat, security, ensuring security, security of the individual, society and the state.

Received: 20.02.25

Accepted: 22.02.25

Published: 24.02.25

Abstract: The article analyzes the essence of the concept of security, scientific views and approaches of scientists to this concept from a political point of view. Based on the comparative method, the history of the emergence of the phenomenon of “security”, the concepts of “danger” and “threat” that form its structural core, the conceptual approaches of philosophers and scientists who lived and worked in different historical periods, as well as opinions related to it, are highlighted.

“XAVFSIZLIK” FENOMENINING IJTIMOIIY-SIYOSIY TAHLILI

Jahongir Boybutayev

dotsent, PhD

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Akademiyasi

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Xavf, xavf-hatar, tahdid, xavfsizlik, xavfsizlikni ta’minlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi.

Annotatsiya: Maqolada xavfsizlik tushunchasining mazmun-mohiyati, ushbu tushuncha bo‘yicha olimlarning ilmiy qarash va yondashuvlari siyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asosan “xavfsizlik” fenomenining kelib chiqish tarixi va uning tarkibiy o‘zagi bo‘lgan “xavf” va “tahdid” kabi tushunchalarning turli tarixiy davrlarda yashab ijod qilgan faylasuf hamda olimlarning konseptual yondashuvlari hamda u bilan bog‘liq fikr-mulohazalari qiyosiy metod asosida yoritib beriladi.

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФЕНОМЕНА «БЕЗОПАСНОСТЬ»

Жахонгир Бойбутаев*PhD, доцент**Академии Министерства Внутренних Дел Республики Узбекистан**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Опасность, угроза, безопасность, обеспечение безопасности, безопасность личности, общества и государства.

Аннотация: В статье анализируется сущность понятия безопасности, научные взгляды и подходы ученых к этому понятию с политической точки зрения. На основе сравнительного метода освещены история возникновения феномена «безопасность», понятий «опасность» и «угроза», составляющих его структурное ядро, концептуальные подходы философов и ученых, живших и творивших в разные исторические периоды, а также мнения, связанные с ним.

Kirish. Xavfsizlik masalasi butun insoniyatni tashvishga soladigan va o'ylantiradigan masala hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, bugungi zamonaviy dunyoda mavjud bo'lgan turli xil tahdidlar insonlarga, ijtimoiy guruhlariga hamda davlatlarga ta'sir qilgan holda shakllanib bormoqda. Bu esa, butun insoniyatga hamda davlatlarning hamkorligiga ham putur yetkazmoqda. Shu bois, bugun butun insoniyatga hamda davlatlarga xavf solayotgan muammolarni kompleks sifatida "xavfsizlik" fenomenini tahlil qilish orqali muammolarning ko'lamini ochib berish hamda ulardan himoyalaniish uchun ham ushbu mavzuni ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan o'rganish juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuni yoritishda S.I.Ojegov, A.V.Gerasimov, S.A.Ilminskaya, I.B.Ilyuxina, S.V.Melnik, I.I.Boboqulovlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, mavzuni yoritishda tarixiylik, qiyosiy tahlil, mantiqiylik, tizimlilik kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bugun dunyoda "Xavf" va "Xavfsizlik" tushunchalariga yagona yondashuv mavjud emas. Chunki, "Xavf" so'zining bir qancha sinonimlari mavjud. Masalan, tahdid, zarar, xavf, xatar va hokazo. Ba'zi olimlar geosiyosiy nuqtayi nazardan "tahdid", "xavf" tushunchalariga davlatlarning o'zaro raqobati sifatida yondashsa, ba'zi olimlar esa, ushbu tushunchalarni jamiyatning ichki muammolari bilan bog'lashga urunib tushuntiradilar.

"Xavf" so'ziga "siz" qo'shimchasini qo'shilishi ushbu so'zni bir ma'nodan ikkinchi ma'noga o'tishiga sabab bo'ladi. "Rus tilida "xavfsizlik" so'zi – har biri mantiqiy isbotlangan deb e'tirof etiladigan ikki holat o'rtasidagi ziddiyat tamoyili asosida yasalgan" [1, – C. 44] deb tushuntirilishi ham yuqoridagi fikrimizni takrorlaydi.

“Xavfsizlik bo‘yicha rasmiy hujjatlar atamalarining izohli lug‘ati” [2] da esa, “xavfsizlik” tushunchasi ikki xil ko‘rinishda talqin etiladi. Jumladan: 1). Zarar yetkazish ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan maqbul bo‘lmagan xavfning yo‘qligi. Standartlashtirish sohasida mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar xavfsizligi odatda bir qator omillarning maqbul muvozanatiga erishish maqsadida ko‘rib chiqiladi. Bu omillarga insonlarning xulq-atvori kabi texnik bo‘lmagan jihatlar ham kiradi. Bunday yondashuv insonlar sog‘lig‘i va mol-mulkiga zarar yetkazish ehtimoli bilan bog‘liq bartaraf etilishi mumkin bo‘lgan xavfni maqbul darajaga tushirish imkonini beradi. 2). Shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlari ichki va tashqi tahdidlar yoki xavf-xatarlardan himoyalangan holati. Bu himoya fuqarolar huquqlari, tabiiy obyektlar, atrof-muhit va moddiy boyliklarni sanoat obyektlaridagi baxtsiz hodisalar, avariylar va halokatlar oqibatlaridan saqlashni o‘z ichiga oladi [2, – C. 25].

“Xavf” va “Xavfsizlik” tushunchalariga mahalliy olimlarimizdan I.I.Boboqulovning “Xavfsizlik” [3] deb nomlangan lug‘atida quyidagicha izoh beradi:

“Xavf” – inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va jahon hamjamiyatiga ziyon yetkazishi, moddiy va ma‘naviy qadriyatlarning buzilishi yoki inqirozining yuzaga kelishiga, taraqqiyot yo‘lining berkilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy (yoki real) voqea, hodisa yoki jarayon...

“Xavfsizlik” – insonlar, jamiyatlar, davlatlar va xalqlarning obyektiv ehtiyoji, ular faoliyatining bosh omili va mavjudligining zaruriy sharti hisoblanadi. Xavfsizlik ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglash, xavf va tahdid, xavfsizlikning obyekti va subyekti, soha va tizimi kabi tushunchalarning siyosiy-huquqiy tabiatini anglab yetishda boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiladi” [3, – C. 53].

Rossiyalik filolog olim, professor Sergey Ivanovich Ojegovning fikriga ko‘ra: “xavfsizlik” – xavf bilan tahdid qilmaslik, xavfdan himoya qilish, xavfdan holi bo‘lish, xavfsiz joy” [4, – C. 39] – degan ma‘nolarni anglatadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish kerakki, ba‘zi olimlar “Xavfsizlik” tushunchasini yoritishda ushbu tushunchaga qarama-qarshi bo‘lgan “Xavf” tushunchasidan foydalanadilar. Har qanday xavfsizlik konsepsiyasining maqsadi avvalo, tahdidlar va xavflarni aniqlashdan iborat bo‘ladi. Shu bois, ushbu soha bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar “Xavfsizlik” masalasini tahlil qilishda jarayonida, uning dialektik ziddi bo‘lgan “Xavf” tushunchasiga tayanadilar.

“Xavfsizlik sohasidagi birinchi nazariyotchilar faylasuflar bo‘lgan. Xususan, o‘tgan tarixiy davr mobaynida “xavfsizlik” fenomeni davlat faoliyati bilan bog‘liq tushuncha sifatida faylasuflarning fikrlarida aks etgan. Antik davr faylasuflari Arastu [5] va Aflotun [6] tomonidan davlat xavfsizligi jamiyatdagi shaxslarga nisbatan tazyiqlar va huquqlarning poymol bo‘lishi

oqibatida tanazzulga yuz tutishi ta'kidlanadi. Shu bois, Aflotun tomonidan qo'llanilgan "xavfsizlik" atamasi "yordam", "najot" inson uchun xavf yoki yomonlikning yo'qligi deb izohlanadi" [7, – C. 23]. Suqrot o'z baxs va munozaralarida jamiyatdagi insonlarning yuksalishini shaxslarni uch toifaga ajratgan holda tushuntirib beradi. Jumladan: birinchi toifa – xavfni bartaraf eta olish bilimi va qobiliyatiga ega bo'lgan mard va jasur shaxslar, ikkinchi toifa – odamiylik va ilohiylik qonuniyatlariga qat'iy amal qiladigan adolatli shaxslar va uchinchi toifa – his-tuyg'ularini va muvozanatni saqlay oladigan shaxslar.

"Xavfsizlik" tushunchasining metodologik asoslari hamda bu masalaga bo'lgan dunyo olimlarining ilmiy qarashlari va yondashuvlari keng va murakkab sohani tashkil etadi. "Xavfsizlik" tushunchasini tushunish va unga ilmiy manba va adabiyotlar asosida yondashish, asosan uch yo'nalishga ajratgan tarzda tavsiflanadi, ya'ni: *birinchisi* – texnologik va harbiy yondashuvlar, *ikkinchisi* – inson va jamiyat xavfsizligi hamda uchinchisi – global xavfsizlik va geosiyosiy tahdidlar.

Dunyo olimlarining "xavfsizlik" tushunchasiga nisbatan yondashuvlari, nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu kabi yondashuvlar dunyoning umumiy xavfsizlik muhitini, xavfsizlikni ta'minlash usullari va xavflar to'g'risidagi qarashlarning fundamental asoslarini belgilaydi. "Xavfsizlik" atamasi faylasuf olimlar tomonidan bir qancha ma'nolarni o'z ichiga olgan yondashuvlar asosida talqin qilinadi. "Xavfsizlik" tushunchasini mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, atamaning o'zi moliyaviy vosita turini, psixologik holatni, himoya tizimini, borliqning jismoniy holatini anglatadi.

G'arbning xavfsizlik nazariyasi asoschilari tomonidan yozilgan "Xavfsizlik: tahlilning yangi asosi" [8] nomli asarda bugungi kunda xavfsizlik sohasi bo'yicha tadqiqot olib boruvchi olimlarning "xavfsizlik"ka ilmiy nuqtayi nazardan ikki xil qarashlari qiyosiy tahlil asosida tadqiq etiladi. Xususan, ushbu asarda birinchi guruh olimlari an'anaviylik tarafdori bo'lib, ular "xavfsizlik" tushunchasini harbiy-siyosiy masalalar atrofida yoritib bersalar, ikkinchi guruh olimlari esa, ushbu atamani kengroq tushuntirishga, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalardagi xavfsizlik nuqtayi nazaridan asoslashga urinadilar.

Sharq mamlakatlari, xususan bizning davlatchilik tariximizda jamoa tartibi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qator strategik qarorlar qabul qilingan. Amir Temur va undan keyingi davrlarda ham xavfsizlik masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralgan. Jumladan, Amir Temurning "Temur tuzuklari"da: "... Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, sipohu raiyat xavfsizligini ta'min qilsin va kimning biror narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin. Va yana buyurdimki, yo'l ustida kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar" [9, – B. 138] – degan ma'lumotlarni

keltirilishi ham jamiyatdagi har bir a'zoni xavfsizligi ta'minlanishiga katta e'tibor qaratganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Amir Temurning jamiyat va davlat tartibini saqlashda turli xil xavf-xatarlarga qarshi jiddiy va tizimli yondashgani, jamiyatning turli qatlamlari orasidagi tinchilikni saqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

“Bugungi globallashuv davrida yangidan-yangi tahdid va xavf-xatarlar paydo bo'lmoqda, jinoyatlarni sodir etish usul va vositalari, maqsadlari o'zgarib bormoqda” [10]. “Ba'zilar uchun xavfsiz bo'lgan narsa boshqalar uchun tahdid bo'lishi mumkin” [11, – C. 239]. Darhaqiqat, siyosiy nuqtayi nazardan bir davlat uchun xavf hisoblangan jarayon, boshqalar uchun xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi bo'lishi mumkin. Bunday jarayonlarga nisbatan “*xavfsizlik paradoksi*” yoki “*xavfsizlik dilemmasi*” tushunchasi qo'llaniladi. Ya'ni, bir davlat o'z xavfsizligini ta'minlash uchun kuchli strategiyalarni amalga oshirib borishi, boshqa davlatlarni xavf ostida bo'lishiga olib keladi. Masalan, Eronning yadroviy dasturi AQSH uchun tahdid bo'lsa, aksincha, Eron uchun xavfsizlikning kafolati hisoblanadi.

Xavfsizlik – ko'pincha davlat, jamiyat yoki tashkilotlarning ichki va tashqi xavflarga qarshi ishlab chiqadigan strategiyasi bo'lib, u huquqiy normalar asosida mustahkamlab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining “Mudofaa va xavfsizlik” deb nomlangan 27-bobida ham xavfsizlik haqida normalar mustahkamlangan. Xususan, 152-moddada: “O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi”, 153-moddada: “O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega” [12, – B. 107]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: “Xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini saqlash eng usutvor vazifamiz bo'lib qoladi” [13].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, XX asrdagi olimlarning “xavf” xususidagi fikrlarida inson va davlat xavfsizligi markaziy o'rinni egallagan. XXI asrga kelib esa, “xavf” tushunchasi ancha murakkablik kasb etgan holda, uning ko'lamini kengayib terrorizm, kiberxavf va ekologik xavf kabi muammolarni qamrab olgan. Xavfsizlik bir xil ko'rinish kasb etmaydi, shu bois, u doimiy dinamikada bo'ladigan jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Словарь иностранных слов. 19-е изд., стер. – Москва: Рус. язык, 1990.
2. Словарь терминов официальных документов по безопасности. – Москва: Закрытое акционерное общество “Научно-технический центр исследований проблем промышленной безопасности”, 2017.
3. Бобокулов И.И. Хавфсизлик: Луғат. – Тошкент: Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, 2011.

4. Ожегов С.И. Словарь русского языка. – Москва: 1983.
5. Аристотель. Политика. – Москва: Азбука-Аттикус, 2015.
6. Афлотун. Давлат: насрий дoston. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2024.
7. Герасимов А.В. Феномен безопасности в социально-философском дискурсе // Философская школа № 4. 2018.
8. Barry Buzan, Ole Weaver, Jaap de Wilde. Security: A New Framework for Analysis. – London: Lynne Rienner Publishers, 1998.
9. Темур тузуклари. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2013.
10. Мирзиёев Ш.М. Қонун устувор, адолат барқарор бўлса, жиноятчиликка ўрин қолмайди. 10.01.2019. [www//https://president.uz/uz/2237](https://president.uz/uz/2237) (Мурожаат санаси: 25.01.2025).
11. Ильминская С.А., Илюхина И.Б., Мельник С.В. Трансформация взглядов: содержание и приоритеты безопасности // Вестник Московского университета МВД России. № 3 / 2019.
12. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – Б. 107.
13. [www//https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/14/armed-forces/](https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/14/armed-forces/) (Мурожаат санаси: 25.01.2025).